O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIJDON ERKINLIGINING TAMINLANISHI

To'raqulova Iroda ,Toshtemirova Muxlisa - TerDu 1 kurs talabalari
Ilmiy rahbar: Jo‘rayev Akram Namozovich- TerDu o’qituvshisi

Annotatsiya: Maqolada vijdon erkinligini ta'minlashlanishi озвучивает asosiy huquq ва erkinliklaridan biri ekanligi tushuntiriladi. Har bir fuqaroning o'z e'tiqodiga ega bo'lishi, diniy qarashlarini erkin ifoda etishi yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqi qonun bilan kafolatlanganligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: diniy ekstremist, shaxsiy huquq, diniy ta’lim, shaxs, konfessiya.

Diniy erkinlikni ta’minlash bevosita insonning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan shaxsiy huquq va erkinliklarini ta’minlash demakdir. Afsuski, ayrim shaxslar tomonidan qonunni qo’llashdagi xatoliklar va shaxsiy adovatlar sabab qanchadan-qancha insonlarga nohaq ravishda “diniy ekstremist” sifatida ayblov hukmi o’qilgan yoki ular ta’qib ostiga olingan. Bu holatlarni bartaraf etmasdan turib, inson huquqlarini to’liq kafolatlash mumkin emas, albatta. Yuqoridagi kabi ***holatlarni tahlil qilgan holda, qonunchilikni takomillashtirsh yuzasidan 19.08.2026*** yilda ushbu qonuning yangi tahriri muhokama uchun taqdim etildi. Amaldagi qonunga tuzatishlar va qo’shimchalar kiritish bilan birga, yangi tartib taomillar va o’zgarishlar joriy etilishi kutilmoqda. Xususan, qonunda Diniy ta’lim, konfessiya, missionerlik, prozelitizm, mahalliy diniy tashkilot, diniy ta’lim muassasasi hamda diniy mazmundagi material kabi atamalarga ta’rif berilmoqda va ularning qo’llanishiga doir normalar kiritilmoqda, “xususiy tartibda diniy ta’lim berish” jumlasi “ota-onalarning yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslarning o’z farzandlariga diniy ta’lim berishi mustasnodir” degan qo’shimcha bilan to’ldirilmoqda, fuqarolarning jamoat joylarida diniy libosda yurishiga doir cheklov olib tashlanmoqda, ushbu sohada foliyat ko’rsatuvchi organlarning vakolatlari belgilanmoqda, diniy tashkilotlarning buzilgan huquqlari yuzasidan sudga shikoyat

qilish huquqi kafolatlanmoqda va ushbu mazmundagi shikoyatlar davlat boji to`lashdan ozod qilinmoqda, diniy tashkilotlarning huquq va majburiyatlari belgilab berilmoqda, qonunga xilof bo'lmagan diniy adabiyot va materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish huquqi faqatgina diniy tashkilotning markaziy organiga emas, balki barcha jismoniy va yuridik shaxslarga berilmoqda, diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazishdagi davlat xizmatlari ko'rsatish tartibi belgilanmoqda va boshqa shu kabi o'zgarishlar ko'zda tutilmoqda.

Din va e'tiqod masalalari inson ma'naviyatining uzviy qismidir. Mazkur masalalarning mazmun-mohiyati haqida chuqur va asoslangan bilimlarga ega bo'lish hayotiy-amaliy faoliyatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, vijdon erkinligi har bir shaxsning tabiiy huquq va erkinliklar sirasiga kiruvchi ajralmas huquqlaridan biridir. Vijdon erkinligi insonning eng muhim haqlaridan bo'lsa-da, qonunda o'z ifodasini topib, muhofaza ostiga olingandagina chin ma'noda huquq darajasiga ko'tariladi. Aks holda shaxsning qalb kechinmalarini ifodalovchi bu huquq haqiqiy ma'nosini yo'qotadi.

Fuqaro dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod qilmaslikka, ibodatlarda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka, diniy ta'lim olishga nisbatan o'z munosabatini belgilayotganda uni u yoki bu tarzda majburlashga yo'l qo'yilmaydi".

Demak, vijdon erkinligi faqat xudoga ishonish yoki ishonmaslikdan tashqari, ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda ishtirok etish yoki etmaslik erkini, shuningdek, diniy ta' lim olish yoki olmaslikni o'z ixtiyori asosida belgilash huquqlarini ham o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi demokratik prinsiplarga sodiqligi ifodasi sifatda vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari quyidagilardan iborat deb belgilandi:

- fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymagan holda, ularning vijdon erkinligiga bo'lgan o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish;

- konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash;

- vijdon erkinligini ta’minlashda dunyoviy davlat qurilishini saqlab qolish;

- vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilikka fuqarolar hamda diniy tashkilotlar tomonidan rioya etilishini ta’minlash;

- jamoat tartibiga, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog‘lig‘i va axloqiga, huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi diniy g‘oyalar hamda qarashlarning singdirilishi va tarqatilishiga qarshi kurashish;

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunni hayotga tatbiq etish va sohaga oid amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar natijasida diniy tashkilotlarni ro‘yxatga olish hamda ularga rahbarlik qilish, noan’anaviy diniy oqimlar yoyilib ketishining oldini olish, diniy ta’lim tizimini takomillashtirish, shuningdek, diniy adabiyotlarni chop etish va tarqatish kabi diniy hayot barqarorligini ta’minlashga qaratilgan vazifalarni bajarish uchun zamon talablariga mos huquqiy mexanizm yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2021-yil).

2. Sh.M. Mirziyoyev. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". – Toshkent, 2021.

3. Шадиева Д. К. Экстраполяция и изучение тенденций на изменение норм русского языка //Современные проблемы филологии. – 2022. – С. 133-138.

1. Шадиева Д. К. Изучение характера изменений норм русского языка //Ученый XXI века. – 2022. – №. 8 (89). – С. 27-32.